



## ISMOIL SOMONIY MAQBARASI JAHON ME'MORCHILIK VA BINOKORLIK MAKTABLARINING NOYOB ARXITEKTURAVIY YODGORLIGI

To'xtasinov Mira'zam Abdujabbor o'g'li

Namangan Davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

[mirazamtohtasinov@gmail.com](mailto:mirazamtohtasinov@gmail.com) +998973731234

**Annotatsiya:** Maqolada Somoniylar sulolasining eng yorqin vakillaridan biri bo'lgan Ismoil Somoniy (907-914) davrida bunyod etilgan Ismoil Somoniy maqbarasining qurilishi hamda uning O'rta Osiyo va jahon me'morchiligidagi tutgan o'rnini ilmiy asoslangan ta'riflar orqali yoritib berilgan. Shu bilan birgalikda so'ngi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida "Ismoil Somoniy maqbarasi" Markaziy Osiyodagi dastlabki qabr ustiga bunyod etilgan maqbara ekanligi isbotlandi. Ismoil Somoniy maqbarasini qurilishi, dizayni va qurulishda foydalanilgan xom ashyolar haqida tarixiy manbalar va adabiyotlarga asoslangan holda ma'lumotlar ketirib o'tilgan.

**Абстрактный:** В статье поясняется конструкция мавзолея Ислама Сомони, который был построен в период правления Ислама Сомони (907-914 гг.), одного из ярчайших представителей династии Сомони, и его место в архитектуре Средней Азии и мира. через научно обоснованные определения. При этом в результате научных исследований, проведенных в последние годы, доказано, что «Мавзолей Ислама Сомони» представляет собой мавзолей, построенный на вершине первой могилы в Центральной Азии. На основе исторических источников и литературы собраны сведения о сырье, использованном при строительстве, проектировании и строительстве мавзолея Ислама Сомони.

**Abstract:** In the article, the construction of Ismail Somoni's mausoleum, which was built during the reign of Ismail Somoni (907-914), one of the brightest representatives of the Somoni dynasty, and its place in the architecture of Central Asia and the world are explained through scientifically based definitions. At the same time, as a result of scientific research conducted in recent years, it has been proved that "Ismail Somoni mausoleum" is a mausoleum built on top of the first grave in Central Asia. Based on historical sources and literature, information about the raw materials used in the construction, design and construction of the Ismail Somoni mausoleum was collected.

**Kalit so'zlar:** Somoniylar sulolasining oilaviy maqbarasi, tuya suti va xo'roz qoniga qorilgan loy, sug'diyalar me'morchiligi va arab me'morchilagini qorishmasi, peshtoq, ravoqlar galeriyasi, gumbaz, tosh taxta, yarim shar shaklidagi kubba, dinamik kvadrat, sentrik kompozitsiya.

**Ключевые слова:** Семейный мавзолей династии Саманидов, глина, смешанная с верблюжьим молоком и петушиной кровью, смесь согдийской архитектуры и арабской архитектуры, галерея арок, купол, каменная плита, полусферический купол, динамичная площадь, центрическая композиция.

**Key words:** The family mausoleum of the Samanid dynasty, clay mixed with camel milk and rooster blood, a mixture of Sogdian architecture and Arab architecture, a gallery of arches, a dome, a stone slab, a hemispherical dome, a dynamic square, a centric composition.

**KIRISH:** Yurtimiz juda qadimiylari va betakror tarixiy obidalarga boy mamlakatlardan hisoblanadi. Mamlakatimiz hududida ming yillar avval barpo etilgan me'moriy obidalarning mavjudligi va ularning qurulish arxitekturaviy dizayni necha ming yillardan beri nafaqat yurtimiz me'morlarini balkim dunyo me'morlarini xayratda qoldirib kelmoqda. Samarcand, Buxoro va Qashqadaryo hududlarida barpo etilgan me'moriy yodgorlik buning yorqin dalilidir. Qadimiy va ko'hna Buxoroda Somoniylar davrida bunyod etilgan 'Ismoil Somoniy maqbarasi' ham shular jumlasidandir.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR:** Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida G.A. Pugachenkovning "Мавзелей Ислама Самани" va Shamsiddin Kamoliddinning "Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний" asarlari metodologik manba bo'lib belgilandi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, xronologik, izchillik va obyektivlik usullardan keng foydalanildi. Ismoil Somoniy



maqbarasining qurulish tarixi obyektiv ochib berildi. Jumladan ushbu maqbara tarixi o'rganishda va ta'mirlash jarayonoda ishtorok etgan buxorolik tarixchi M.Saidjonov, Vasiliy Vyatkin, B. Zasipkin, Usta Shirin Murodov, va professor M. Bulatov kabi olimlar ham o'z fikrlarini bildirganlar.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:**Somoniylar sulolasini davri me'morchiligi durdonasi hisoblangan Ismoil Somoni maqbarasi Somoniylar sulolasining yirik vakili Ismoil Somoniy tomonidan qurilgan. Ismoil Somoni maqbarasi Buxoro shahrining g'arbiy qismida Registon yaqinidagi madaniyat va istirohat bog'ining hududida joylashgan. Markaziy Osiyodagi qabr vazifasini o'tagan birinchi maqbara hisoblanadi.<sup>1</sup> Ismoil Somoni maqbarasi mo'g'ullar hujumi chog'ida sahrodagi bo'ronlar paytida qumga ko'milgan edi. Shu tufayli hujumlardan hech qanday zarar ko'rmasdan omon qolgan maqbara bugungi kungacha saqlanib qolgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Chingizxon qo'shinlari shaharga yaqinlashayotganidan xabar topgan Buxoro ahli Ismoil Somoni maqbarasini butunlay tuproq bilan ko'mib yuborishadi. Shuning uchun qo'shin chiroqli inshoot o'rnida kichkinagina tepalik ko'radi va yonidan o'tib ketadilar. Xavf ortda qolganidan so'ng Buxoro aholisi maqbarani ehtiyojkorlik bilan qazib oladilar. Ular Chingizzonning qo'shini o'z yo'lidagi barcha narsalarni vayron qilib ketishini yaxshi bilar edilar. Shuning uchun ular shunday yo'l tutganlar. Bu yodgorlik xalq orasida va ilmiy adabiyotlarda Somoniylar sulolasining eng atoqli namoyondasi Ismoil Somoni maqbarasi nomi bilan ma'lum va mashhurdir. Mozorning bir qismida Ismoilning otasi Ahmad dafn qilinganligi Ismoilning qabri ham shu yerda ekanligi haqida ma'lumotlar bor.<sup>2</sup> Bundan tashqari, maqbara peshtoqining ravog'i tepasidagi tosh taxtada Ismoilning nabirasi Nosirning ismi ham zikr qilingan. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida keltirilgan ma'lumotga ko'ra, "o'rta asrlarda bu yerda Naukanda qabristoni bo'lgan.<sup>3</sup> O'rta aslarda Buxoroda Naukanda nomli ariq ham bo'lib, u X asrda yashagan al-Istaxriy va Ibn Xavqalning geografik asarlarida ham ushbu joy haqida ma'lumotlar qayd etilgan. Arxeologik qazilmalar natijasida shu narsa aniqlandi, ilgari Ismoil Somoni maqbarasidan shimoli-sharqda yana bir nechta maqbaralar bo'lib, ularda Somoniylar oilasining a'zolari va ularga yaqin bo'lgan odamlar dafn etilganligi aniqlandi. Bu ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, bu joy Somoniylar sulolasining oilaviy maqbarasi ekanligini va bu maqbara haqiqatdan ham Ismoil Somoniya tegishli ekanligi o'zining ilmiy tasdig'ini topdi.<sup>4</sup> Yodgorlikning qurilishi arablar istilosidan so'ng Markaziy Osiyo me'morchiligining tiklanish davriga to'g'ri keladi. Inshoot shakli bejizga tanlanmagan. Uning har bir qismi ma'lum bir ma'noni o'zida mujassam etgan. Misol uchun kub yerning ramzidir, gumbaz esa osmonning ramzi hisoblanadi. Bular birqalikda esa dunyoning birligini anglatuvchi ramzlardir. Ayrim tarixchi olimlarning fikricha bu maqbara dunyoning kichraytirilgan nusxasidir.<sup>5</sup>

XX asrning 1-yarmida yashagan buxorolik tarixchi M.Saidjonovning ma'lumotiga ko'ra, Ismoil Somoni maqbarasi turgan yer ilgari "Ku-yi Chahor gumbazon" ya'ni To'rt gumbaz ko'chasi deb atalgan. Ismoil Somoni maqbarasining to'rt tomoni bir xil chordara shaklida jumjuma g'ishtin bezaklari chiviqli to'siq yoki qamish, bo'yra to'qimasini eslatadi. Inshoot qabr vazifasini bajarganligi sababli, uning intereri<sup>6</sup> uch pog'onali (to'rtlik-to'rt devor, sakkizlik devordan tomga o'tish qismi va gumbaz-tom ko'rinishdagi) bir xonali kvadrat shaklni tashkil qilgan. Uning qurilishida pishgan g'isht, tosh va yog'ochdan foydalanilgan. Ayrim manbalar va rivoyatlarga ko'ra, g'ishtni terishda orasiga tuya sutiga qorilgan loy ishlatilgan. Boshqa bir afsonalarda aytilishcha esa obidaning qurilishidagi loy uchun qizil

<sup>1</sup> <https://www.trtavaz.com.tr/haber/uzb/avrasyadan/somoniylar-maqbarasi-o-rta-osiyome-morchiligi-durdonasidir/61cecfb101a30a1e504c4238>. (9.11.2023-yil)

<sup>2</sup> Анатолевна Г. Исмоил Сомоний мақбараси. –Т:, 1964. Б. 2.

<sup>3</sup> Камолиддин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholars press. 2017. Б. 46.

<sup>4</sup> Анатолевна Г. Исмоил Сомоний мақбараси. –Т:, 1964. Б. 2.

<sup>5</sup> <http://guide.beeline.uz/uz/site/view?id=96>. (09.11.2023-yil).

<sup>6</sup> Interyer (fransuzcha – interieur, lotincha - interior - ichki dunyo) Boshqa so'zlar bilan aytganda: binoning ichki makonining me'moriy-badiiy dizayni, insonga estetik idrok etish va qulay yashash sharoitlarini ta'minlash; me'moriy yechimi uning funktsional maqsadi bilan belgilanadigan bino yoki alohida xonaning ichki maydoni.



xo'rozning qonidan foydalanilganligi haqida hikoya qilinadi, shu sababli maqbara g'ishtlari hech qanday rangli bo'yqlarsiz ham hozirgacha o'z jozibasini yo'qotmagan.<sup>7</sup>

Maqbaraning dizayniga to'xtaladigan Devor qalinligi 1,8 m, tarhi tashqarisi  $10,80 \times 10,70$  m, ichkarisi  $7,20 \times 7,20$  m. Usti gumbaz bilan qoplangan. To'rt burchagi ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofiga to'rtta qubba o'rnatilgan. Devor tepasida 40 ta kungirasimon darcha mavjud. Har bir darcha hoshiyalangan. Ravoq tepasidagi qanos<sup>8</sup> g'ishtin tangachalar marjoni bilan chegaralangan. Ikki chetiga mayda-mayda g'ishtdan chorus tumor yasalgan. Bino ichkarisi tashqaridagi bino bilan uzviy bog'liq bo'lib, uslub jihatidan bir xil. Ichki devor gumbaz osti bag'alidagi ustma-ust ravoqchalar ustunchalarga tayangan. Ravoqchalar sakkiz qirrali gumbaz asosini tashkil qiladi. Qirralar burchagiga gumbazga tirgaklik qiluvchi ustunchalalar ishlangan. Ismoil Somoni maqbarasining tashqi devorlarida past tomoni uchli, tepe tomoni esa gorizontal bo'lган va o'rtasidan vertikal chiziq bilan ikkiga bo'lingan uchburchak shakldagi ramzlar ham bor. Hosil bo'lган ikkita uchburchakning ichida o'simlik tasviri bor. Bu ramzlar har bir eshik tokining tepasida yuqorida tasvirlangan buddaviy ramzlarning o'rtasida bittadan joylashgan bo'lib ularning umumiy soni to'rtta bo'lган. Mutaxassislarning fikriga ko'ra bu ramzlarda otashparastlarning otashdoni ifoda etilgan. Sakkiz burchakli tokning janubiy ravoqidagi pishiq g'ishtdan ishlangan panjara shunday terilganki, g'ishtlar orasidagi bo'shliqlar hamma tomonlari teng bo'lган xoch shaklini beradi. Shuni ham aytish kerakki, maqbarada islom davri bilan bog'liq birorta belgi yoki yozuv yo'q. Taxmin qilinishicha maqbara islomdan olingi dehqonlar saroyi yoki so'g'd me'morchiligidida keng tarqalgan ajdodlar xotirasini eslash uchun qurilgan maxsus bino shaklida qurilganligi ham, yuqoridagi fikrlarimizni yorqin dalilidir. Bundan shuni anglash mumkinki Ismoil Somoniyning islomdan oldingi ajdodlari moniy bo'lганlar. Ismoil Somoni ajdodlarining diniy e'tiqodini yodda tutib, unga hurmat bilan qaragan va ularning ramzlarini Buxoroda qurdirgan sulolaviy maqbaraning devoriy naqshlarida buni ifoda etgan.<sup>9</sup>

Ushbu arxitekturaviy yodgorlik XI asrdan ortiq vaqt ichida dastlabki holi to'laligicha saqlanib qolgan obida sanaladi. Arxeologik qazilma vaqtida (1927-yilda) xona sahnida ikkita yog'och sag'ana borligi aniqlangan. M. Saidjonov topgan vaqfnomada qayd qilinishicha, otasi amir Ahmad mozoridan Registongacha yerlarning bir qismi maqbaraga vaqf etilgan. 1568-1569 yillarda qayta yozilgan vaqf nizomiga ko'ra, 868-yilda Ismoil Somoni davrida otasi Ahmad ibn Asad qabri ustida qurilgan. XX asr boshlariga kelib, saqlanib qolgan maqbara atrofida sharq tomonidan bitta kirish eshigi bo'lган baland devor bilan o'ralgan kichik qabristongina qolgan.

Maqbara birinchi marta 1924-yilda Moisei Ginzburg ekspeditsiya guruhi tomonidan o'rganilgan. 1925-yilda Buxoro tarixiy va san'at yodgorliklarini muhofaza qilish komissiyasining ilmiy kotibi Muso Saidjonov bino gumbazining astarlarini tiklashni tashkil qilgan. Keyingi arxeologik tadqiqotlar Vasiliy Vyatkin tomonidan 1926-1928-yillarda olib borilgan qazishmalar davomida nekropol (qabriston) ichida bir nechta qabrular, jumladan Ismoil Somoniyning jasadi saqlanib qolganligi aniqlandi. Binoni ko'mib yuborgan zax tuproqlardan tozalanib, 1937-1939-yillarda B. Zasipkin va Usta Shirin Murodov boshchiligidida ta'mirlangan. Ming yildan ortiq vaqt davomida qad ko'tarib turgan maqbara katta o'zgarishlarga uchramagan. Maqbaraning kimga tegishliliqi, shuningdek, uning qurilish davri Ismoil Somoni davriga oidligi 1926-yilgacha xalq afsonasiga asoslangan edi. Bu ma'lumotlar Muso Saidjonovning tadqiqotlari tufayli ilmiy asoslandi. Olib borilgan tadqiqotlarlar natijasida Ismoil Somoni maqbarasi o'rta asrlarning rivojlangan davrida (IX-X asrlar) 864-868-yillar oralig'ida barpo etilganligi o'z tasdig'ini topdi.<sup>10</sup>

<sup>7</sup> <https://darakchi.uz/oz/132895>. (09.11.2023-yil).

<sup>8</sup> Qanos (ko'krak) - me'moriy qism; peshtoq ravog'ining tepasidagi tumorsimon juft shakl. Qanos yuqoridan gorizontal, yonlaridan vertikal va pastdan ravoqning egri (linga) chiziqlari bilan chegaralangan. Ravoq lingasini chiqarishda g'ishtlar radial yo'nalishda, qanos qismida gorizontal qo'yib teriladi. Qanos bino tarzlariga diqqatni tortish, me'moriy mujassamotga urg'u berishga xizmat qiladi.

<sup>9</sup> Камолиддин Ш. И smoil и бн Ахмад ас-Сомоний. Scholars press. 2017. B.50.

<sup>10</sup> <https://meros.uz/object/ismoil-somoniy-maqbarasi>. (09.11.2023-yil).



O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan berilayotgan e'tiborga to'xtaladigan bo'lsak, 1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Ismoil Somoniy maqbarasi ham qayta ta'mirlandi. 1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi (1-sessiya, Kolumbiya) "Butunjahon madaniy meroslari ro'yxati"ga kiritildi. 2000-yilning 30-avgustida „Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risi“ dagi qonun qabul qilindi. Davlat tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me'moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolati hisoblanadi.

2021-yil Buxoro viloyat hokimligida viloyat hokimi o'rinnbosari Botir Shahriyorov Janubiy Koreyaning "New Layer Co., Ltd", "EGIS Co., Ltd", "J-TOD Co.,Ltd", kompaniyalari va "LX" korparatsiyasi vakillari Lee Kwang Se, Kang Seokchan, Park Choondong, Dongho Lee, Lim Seong Ha, Kim Jeungsoo, Jung Inhyelardan iborat delegatsiya vakillari bilan uchrashdi 2021-yilning 27-sentabridan 20-oktabrga qadar mamlaktimizda bo'lishi rejalashtirilgan delegatsiya vakillarining asosiy maqsadi Koreya Respublikasi axborot texnologiyalarini rivojlantirish milliy agentligining umumiyligini 150 ming AQSH dollari bo'lgan grand loyihasi asosida Buxoro shahrining tarixiy markazida joylashgan Ismoil Somoniy maqbarasining "Digital Twin", 3D-texnologiyalari va geografik ma'lumotlar yordamida birga-bir raqamli nusxasini (egizagini) yaratish va "Google maps" tizimiga biriktirish bo'yicha ishlarni amalga oshirishdan ko'zlangan edi. O'z o'rnida koreyaliklar ham so'nggi yillarda shaharsozlik, madaniy meros, arxeologiya sohalarida keng qo'llanilayotgan "Digital Twin", "D-T win" (raqamli egizak) texnologiyasining yutuqlari bo'yicha ma'lumot berishdi. Xususan, "D-Twin" yordamida modellashtirish, obyektlar va mexanizmlarni monitoring, diagnostika hamda pragnoz qilishda foydalanish mumkinligini ta'kidlashdi. Shuningdek, uchrashuv davomida madaniy meros obyektlari 3D-platformasining kichik taqdimoti ham bo'lib o'tdi.

Mazkur loyiha amalga oshirilgandan so'ng orttirilgan tajriba asosida Xiva, Samarqand va Shahrisabz shaharlarining tarixiy qismlari, Qoraqolpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi qal'alar, arxeologik topilmalarning 3D nusxalarini yaratish, shu kabi ishlarni doimiy olib bora oladigan texnik guruh va uskunalarini shakllantirishni qamrab oluvchi umumiyligini 6 mln. AQSH dollari bo'lgan grand loyihasi bo'yicha ishlarni boshlash rejalashtirilgan. Grand loyihasi muvofaqiyatli amalga oshsa yaqin yillarda ikkinchi bosqich ishlari ham boshlab yuborilishi rejalashtirildi.<sup>11</sup>

**Xulosa:** O'rta Osiyonong me'morchilik durdonalaridan biri hisoblangan Ismoil Somoniy maqbarasi va uning qurulish arxiteturaviy dizayni, shu ko'rsatadiki bu davrda diniy ilmlar bilan bir o'rinda dunyoviy ilmlar ham rivojlanganligi buning yorqin namunasidir. Bu me'moriy inshootning yaratilgan davridan boshlab hech qanday talofatlarsiz saqlanib kelganligi Somoniylar davrida me'morchilik eng yuksak darajada bo'lganligidan darak beradi. Ushbu maqbaraning qurulishida foydalanilgan xom ashyolarning vas hu bilan birgalikda qanday barpo etilganligi sir asrorlari mana necha ming yillar bo'ldiki insoniyat uchun jumboqli bo'lib kelmoqda. Boshqa me'moriy obidalar qatorida Ismoil Somoniy maqbarsi ham yurtimizning ko'rkiga ko'rk bag'ishlab kelmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- Анатолевна Г. И smoil Сомоний мақбараси. –Т; 1964. Б. 17.
- Камолиддин Ш. И smoil ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholars press. 2017. Б. 93.
- To'rayev H. Buxoro tarixi. -Buxoro. Durdona; 2020. B. 321.
- Bobojanova F. Buxoro me'moriy obidalari tarixi. Buxoro;. Fan va ta'lim. 2022. B. 285.
- <https://www.trtavaz.com.tr/haber/uzb/avrasyadan/somoniylar-maqbarasi-o-rta-osiyome-morchiligi-durdonasidir/61cecfb101a30a1e504c4238>.
- <http://guide.beeline.uz/uz/site/view?id=96>.
- <https://darakchi.uz/oz/132895>.
- <https://meros.uz/object/ismoil-somoniy-maqbarasi>.
- <https://yuz.uz/uz/news/ismoil-somoniy-maqbarasining-3d-nusxasi-yaratiladi>.

<sup>11</sup> <https://yuz.uz/uz/news/ismoil-somoniy-maqbarasining-3d-nusxasi-yaratiladi>. (09.11.2023-yil).



10. <https://www.mirarab.uz/ruknlar/1229>.
11. <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=2572.0>.
12. [https://uza.uz/oz/posts/buxoroning-yetti-tarixiy-obidasi-icesconing-islom-olami-merosi-royxatiga-kiritildi\\_285661](https://uza.uz/oz/posts/buxoroning-yetti-tarixiy-obidasi-icesconing-islom-olami-merosi-royxatiga-kiritildi_285661).
13. <https://uzsmart.uz/encyclopedia/encyclopedia/45440.html>.
14. <http://world.meros.uz/uz/wonder/view?id=48>.
15. <https://daryo.uz/2022/06/09/tangri-jamoli-yoxud-baxtli-maskan-tarixi-asrlarga-tutashuvchi-ozbekistonning-birinchi-poytaxti-bolgan-afsonaviy-buxoro-shahri-haqida>.
16. <https://www.advantour.com/rus/uzbekistan/bukhara/history.htm>.
17. <https://arboblar.uz/uz/people/ismail-samani>.
18. <https://www.trt.net.tr/uzbek/dasturlar/2017/11/03/ona-diyor-obidalari-22-qism-840186>.
19. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/i/ismoil-somoniy-maqbarasi/>.
20. <https://uz.advisor.travel/poi/Ismoil-Somoni-maqbarasi-767>.